



## MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIKKA OID ILMIY TERMINLAR LUG‘ATINI YARATISH TAMOYILLARI

---

*Murodillayeva Zohida Ikromjon qizi*

*ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti*

+998950416871

[zohidamurodillayeva.@gmail.com](mailto:zohidamurodillayeva.@gmail.com)

**Annotatsiya:** Biz ushbu maqolada lug‘atning qaysi davrda va qanday muhitda yaratilganligi hamda uning yaratilishi uchun qanday zaruriyatlar mavjud bo‘lganligi, uning turlari va ularni yaratishda qaysi tamoyillarga asoslanish lozimligini manbalar bilan ko‘rsatib berishga harakat qildik.

**Kalit so‘zlar:** Leksikografiya, electron lug‘at, tamoyil, termin, kompyuter.

**Аннотация:** В данной статье показано, когда появился словарь, его виды и на каких принципах следует опираться при их создании, с источниками.

**Ключевые слова:** лексикография, электронный словарь, принцип, термин, компьютер.

**Annotation:** In this article, when the dictionary appeared, its types and what principles should be based on their creation, it is shown with sources.

**Key words:** lexicography, electron dictionary, principle, term, computer.

Bugungi fan texnika rivoj topib, yuksalayotgan zamonda inson o‘z sohasi uchun qulayliklar yaratish maqsadida kompyuterga murojaat qilmoqda. Bunga sabab esa ishning tez va samarali bo‘lishini ta‘minlashdir. Xuddi shunday leksikografiya (so‘zlarni kodlashtirish, ro‘yxatga olish, til bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar va lug‘at tuzish prinsiplarini o‘rganuvchi fandır<sup>1</sup>) sohasida ham kompyuter va elektron lug‘atlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Buni biz bugungi kunda yaratilayotgan o‘nlab lug‘atlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Dastlabki lug‘atlar eramizdan avvalgi 2300-yillarda Shummer-Akkad davrida yaratilgan bo‘lsa, monolingual (bir tilli) lug‘atlar Xitoyda mil.avv. III asrda yaratilgan ekan. Alifbo tartibida joylashtirilgan birinchi lug‘at esa 1604- yilda Yevropada paydo

---

<sup>1</sup> Қосимжон Содиков. Тарихий лексикография. *Мумтоз филология бўлими талабалари учун ўқув қўлланма.*—Тошкент: 2011,3-б.



bo'lgan<sup>2</sup>. Elektron lug'atlar yaratishda kompyuterdan foydalanish 1960-yillarga borib taqaladi. Bunga misol sifatida esa **Random House Dictionary of the English Language**<sup>3</sup> lug'atini keltirish mumkin. Lug'atlar qaysi maqsadda yaratilishiga ko'ra:

1. Ensiklopedik (Qomusiy) lug'atlar.

2. Lingvistik lug'atlarga bo'linishi barchaga ma'lum. Biz yaratmoqchi bo'lgan Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar lug'ati esa lingvistik lug'at turiga mansub bo'ladi, boisi undan ko'zlangan maqsad sohaga oid terminning ma'nosini sharhlash. Bundan tashqari lingvistik lug'atlarda qisman Grammatik va fonetik ma'lumotlar ham keltirilishi mumkin. Mazmun-maqsadiga ko'ra lingvistik lug'at turiga mansub ushbu lug'at yaratilish shakliga ko'ra electron shaklda bo'ladi. Bundan esa lug'atlar shakliga ko'ra I. Rahimovning "Kompyuter lingvistikasi asoslari" kitobida keltirganidek 2 xil:

1. Kitobiy lug'atlar

2. Elektron lug'atlar shaklida bo'ladi

Kitobiy lug'at- So'zlik shakllantirilib, misollar korpusiga ega bo'lgan, tahrirlanib sahifalangan kitob ko'rinishida chop etilgan lug'at. Biz kitobiy lug'atlarni paydo bo'lishidan to oxiriga qadar quyidagi bosqichlarni bajaramiz: a) lug'at so'zligi shakllantiriladi; b) lug'at maqolalari yoziladi; c) lug'at maqolalari yozilib, ma'lumotlar bazasiga ko'chiriladi; d) ma'lumotlar tahrir qilinib, sahifalanadi; e) nashr etiladi. Kitobiy lug'atlarni tuzishda sahifalar ketma-ketligiga tayaniib, chiziqlilik tamoyiliga asoslaniladi. Elektron lug'atlarda esa gipertekst texnologiyasiga asoslaniladi, shuning uchun lug'at maqolalarining istalgan qismiga tezkor murojaat yuborish mumkin.

**Elektron lug'at**-kompyuter yoki boshqa electron qurilmadagi lug'at. Unda so'zlarni yoki morfologik qurilmalarni tez topish imkoniyati mavjud, shuningdek, unda tarjima tili yo'nalishini o'zgartirish mumkin<sup>4</sup>. Mayevskiy o'zining tadqiqot ishida mana shu ta'rifni keltiradi, biroq bu ta'rif termin ma'nosini to'la ochib berolmasligini aytib electron lug'at uchun quyidagi qisqa ta'rifni keltiradi:

Elektron lug'at-internetda yoki diskda joylashtirilgan maxsus so'zlarning izohli yoki ikki tilli lug'ati. Shuningdek, tadqiqot ishida "electron lug'at", "kompyuter

<sup>2</sup><https://en.wikipedia.org/wiki/Dictionary#:~:text=The%20oldest%20known%20dictionaries%20were,of%20such%20bilingual%20Sumerian%20wordlists.>

<sup>3</sup>M. V. Makarych, Yu. B. Popova<sup>1</sup>, M. O. Shved<sup>2</sup>. Electronic Lexicography: Traditional and Modern Approaches.

<sup>4</sup> .Маевский Сергей Сергеевич. Особенности создания учебного электронного толкового словаря русского языка.—Минск :2015.17-б.



lug‘ati” va “avtomatik lug‘at” atamalarini qo‘llash mumkinligi xususida ham so‘z boradi, lekin “electron lug‘at” atamasi kengroq tushuncha ekanligini hisobga olib, tadqiqot ishida mana shu termindan foydalanadi. Biz ham ushbu maqolada “electron lug‘at” terminini tanlab oldik. Yuqorida biz lug‘atlarni ikki turga ajratdik, boisi ularning afzallik jihatlari va xususiyatlari mavjud. O‘zi electron lug‘atlar nima sababdan yuzaga keldi? Buni yaratilishiga nima turtki vazifasini o‘tadi? Agar biz biron ma‘lumotni topmoqchi bo‘lsak, bir necha ming sahifali kitoblarni o‘qib chiqishimiz zarur edi. Bunga esa juda ko‘p qunt va vaqt talab etilar edi. Kompyuter texnologiyalari esa bundan foydalanuvchini qutqardi, ya‘ni so‘zlarni kodlash asosida ana shu kitobiy lug‘atlarning electron versiyasi vujudga keldi. Endi foydalanuvchi birgina so‘zni izlash uchun soatlab vaqt sarflashi shart emas, shunchaki electron lug‘atga uning nomini yozadi yoki shunchaki ovozli shaklda murojaat yuboradi. Bir necha sekundlar ichida lug‘at sizga muqobil variantni ko‘rsatib beradi. Biz esa buni electron lug‘atlarning afzallik jihatlari kiritishimiz mumkin. To‘g‘ri, kitob singari electron lug‘atlar doimo siz bilan birga bo‘lmaydi, buning uchun sizda qulay sharoit bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda esa har bir soha foydalanuvchilari uchun electron shakldagi lug‘atlar mavjud bo‘lib, bu undan foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi. Biroq so‘z yuritadiganimiz Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid ilmiy terminlar lug‘ati hali yaratilmaganligi sababli ushbu maqolada uni yaratish tamoyillari xususida so‘z yuritimiz. Xususan, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid ilmiy terminlar lug‘ati bugungi kunda yaxlit bir kitob shaklida yaratilmagan bo‘lib, quyidagi fikrlarda ham bu o‘z ifodasini topgan. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, har bir fan nazariyasi shu soha terminlari (istilohlariga) asoslanib ish ko‘radi. Matnshunoslik to‘laligicha filologiya ilmi—tilshunoslik va adabiyotshunoslikning yutuqlari asosida ish olib borishini e‘tiborga olsak, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik terminlarini, hozircha, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi terminlari orasidan terib, o‘zlashtirish kerak bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik lug‘atini yaratish uchun yaratilgan bir nechta lug‘atlar: tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid lug‘atlar ichidan terminlarni tanlab olish joizdir. Bu esa birinchi tamoyilni ya‘ni saralab-tanlab olish tamoyilini yuzaga keltiradi. Dastlabki yaratilgan lug‘atlardan biri bu hammaga tanish bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asaridir. Aynan shu lug‘atni yaratishda ham tuzuvchi aynan shu tamoyilga asoslanadi va buni shunday izohlaydi: “Men lug‘atni tuzishda umumiste’molda



bo‘lgan so‘zlarni tanladim”<sup>5</sup>. Ko‘rinib turibdiki, Mahmud Qoshg‘ariy bu lug‘atni tuzish uchun xalq urf-odat, an‘analari, shevasi, umuman turmush tarzini o‘rgangan va lug‘atga so‘zlarning xalq tilida mavjud bo‘lgan qismini kiritgan. Bu esa so‘zlarni barchaga tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan. Bundan anglash mumkinki, ushbu o‘rinda tuzuvchi foydalanuvchi ehtiyojini qondirish tamoyiliga asoslanib ish ko‘rgan. Foydalanishga taqdim etiladigan har bir ish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Bu esa lug‘atni yaratishda didaktik tamoyilga ham asoslanish lozimligini anglatadi. Avvali, lug‘at tuzishdan ko‘zlangan maqsad nima: o‘quvchiga shu sohaga oid bo‘lgan noaniq termini ma‘nosini tushuntirish va bilimni oshirish ekanligini hisobga olsak, lug‘at tushunilishi oson va qulay bo‘lishi lozim. Bu esa yana bir tamoyil—lug‘atdan foydalanishning oson va qulayligini ta‘minlash tamoyilini yuzaga keltiradi. Lug‘atdan foydalanuvchi inson to‘g‘ri, aniq va to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi uchun biz lug‘at yaratayotganda lug‘atning to‘g‘ri, aniq va to‘liqligini ta‘minlash tamoyiliga ham ahamiyat qaratishimiz lozim. Yuqoridagilarni xulosalaydigan bo‘lsak, lug‘at yaratayotganda biz quyidagi tamoyillarga asoslanishimiz darkor:

1. Saralab-tanlab olish tamoyili.
2. Didaktik tamoyil.
3. Barchaga tushunarlilik tamoyili.
4. Foydalanuvchi ehtiyojini qondirish tamoyili.
5. Tushunish uchun osonlik tamoyili.
6. Lug‘atning to‘g‘ri, aniq va to‘liqligi tamoyili.
7. Ta‘limiy va tarbiyaviylik tamoyili

Nafaqat bu tamoyillar, balki boshqa tamoyillarga ham tayanish mumkin. Fikrimizga isbot sifatida esa quyidagi jummalarni keltirish o‘rinli. Leksikografiya tamoyillari lug‘atlarning turlariga mos ravishda o‘zgarishi mumkin. Qaysi tamoyilning tayanch vazifasini bajarishi lug‘atning maqsad va ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jumladan, “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” o‘zbek tilidagi lug‘aviy birliklarning to‘g‘ri talaffuz qilinishini ta‘minlashni nazarda tutib tuziladi, ya‘ni so‘zni oson – qulay talaffuz qilishni ta‘minlash tamoyiliga amal qilish muhim.<sup>6</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lug‘at tuzish, lug‘at yaratish murakkab jarayondir. Buni quyidagi fikrlar ham isbotlaydi. “Agar biron kishi og‘ir jinoyat

---

<sup>5</sup> Махмуд Кашгарский. Диван лугат-ат-турк . УзССР Фанлар академияси нашриётининг босма хонаси. – Тошкент, 1960. 28-б.

<sup>6</sup> -<https://fayllar.org/2--mavzu-lugat-tuzish-tamoyillari-lugat-turlari-reja.html>



qilsa, uni katorgaga surgun qilish shart emas. U lug‘at tuzsin, shunda u katorganing barcha azoblarini, qiyinchiliklarini tortgan bo‘ladi<sup>7</sup>”. Garchand hazilomuz tarzda aytilgan bo‘lsa ham, ushbu so‘zlar zamirida haqiqat bor, albatta. Chunki Mahmud Koshg‘ariy o‘z lug‘atini tuzish uchun qancha yillarni sarf etgan. Bugungi kunda esa mana mehnatlarni osonlashtirish yo‘li kompyuter bor va ishni bir muncha osonlashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxhati:

1. Қосимжон Содиков. Тарихий лексикография. *Мумтоз филология бўлими талабалари учун ўқув қўлланма*.—Тошкент: 2011.
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Dictionary#:~:text=The%20oldest%20known%20dictionaries%20were,of%20such%20bilingual%20Sumerian%20wordlists>.
3. M. V. Makarych, Yu. B. Popova<sup>1</sup>, M. O. Shved<sup>2</sup>. *Electronic Lexicography: Traditional and Modern Approaches*.
4. Маевский Сергей Сергеевич. Особенности создания учебного электронного толкового словаря русского языка.—Минск :2015.
5. Махмуд Кашгарский. *Диван лугат-ат-турк* . УзССР Фанлар академияси нашриётининг босма хонаси. —Тошкент, 1960.
6. <https://fayllar.org/2-fmavzu-lugat-tuzish-tamoyillari-lugat-turlari-reja.html>.  
7 I.Rahimov. *Компьютер лингвистикаси асослари*.—Тошкент: Akademnashr, 2011.

---

<sup>7</sup> I.Rahimov. *Компьютер лингвистикаси асослари*.—Тошкент: “Akademnashr”, 2011. 83-b.